

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.11517656>

MODDIY MADANIY MEROS OBYEKT LARI HOLATINI YAXSHILASHDA XATLOVNING O'RNI (QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDIDA)

Fayzullayeva Lobar Xayrulla qizi

Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti o'qituvchisi

lobarfayzullayeva@gmail.com

***Annotatsiya:** Maqolada moddiy madaniy meros obyektlari xatlovi haqida so'z yuritilgan.*

***Kalit so'zlar:** moddiy madaniy meros obyektlari, ko'chmas mulk, muhofaza zona, arxeologiya, yodgorlik, uy-joy, madaniy meros.*

***Аннотация:** В статье говорится о классификации объектов материального культурного наследия.*

***Ключевые слова:** объекты материального культурного наследия, недвижимость, охранный зона, археология, памятник, жилище, культурное наследие.*

***Abstract:** The article talks about the classification of objects of material cultural heritage.*

***Key words:** objects of tangible cultural heritage, real estate, protection zone, archeology, monument, housing, cultural heritage.*

1. Kirish.

Madaniy meros – bu ajdodlardan ijtimoiy meros orqali olingan xalq yoki jamiyatni ifodalovchi jismoniy elementlar va nomoddiy xususiyatlar to'plami. Ushbu meros binolar va yodgorliklar, obyektlar va san'at asarlarida aks ettirilgan moddiy madaniy elementlarni o'z ichiga oladi.

Madaniy meros – bu xalqning yoki jamoaning moddiy va nomoddiy merosidir, uni saqlab qolish va keying avlodlarga yetkazish uchun vasiyat qilingan. Bunga e'tiqodlar, bilimlar, badiiy ifodalar, me'yorlar va qadriyatlar, ijtimoiy amaliyotlar, obyektlar va madaniyatning har qanday boshqa ifodalari kiradi. [1]

2. Tadqiqot o'tkazish uslubi.

Tadqiqotlarni bajarishda yer hisobini yuritish, monitoring qilish, topografik-geodezik dala o'lchash ishlari, masofadan zondlash kabi usullardan foydalanilgan.

Tajriba tahlil natijalari Respublikamizning janubiy mintaqasida joylashgan Qashqadaryo viloyatining moddiy madaniy meros obyektlarida 2021-2024 yillar davomida olib borilgan.

4. Natijalar va munozaralar.

2021-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra moddiy madaniy meros obyektlari soni 8 ming 208 tani tashkil etgan.

Quyida ularning hududiy taqsimlanishi keltirilgan;

- Samarqand – 1607 ta;
- Qashqadaryo – 1468 ta;
- Buxoro – 829 ta;
- Toshkent – 828 ta;
- Surxondaryo – 561 ta;
- Navoiy – 437 ta;
- Jizzax – 427 ta;
- Andijon – 422 ta;
- Farg‘ona – 376 ta;
- Toshkent shahar – 354 ta;
- Qoraqalpog‘iston Respublikasi – 288 ta;
- Namangan – 274 ta;
- Xorazm – 259 ta;
- Sirdaryo – 78 ta.

Hozirgi kunda Qashqadaryo viloyatida jami 1468 ta moddiy madaniy meros obyektlari ko‘chmas mulk obyektlari milliy ro‘yxatiga kiritilgan bo‘lib ushbu obyektlarni o‘rganish davomida madaniy meros sohasida bir qator kamchilik va muammolar aniqlangan. Normativ huquqiy hujjatlarga ko‘ra aholi uy-joylari mahalliy ahamiyatga molik moddiy madaniy meros obyektlarining qo‘riqlanadigan tegrasidan kamida 50 metr uzoqlikda joylashishi lozim. Respublika ahamiyatiga molik moddiy madaniy meros obyektlaridan esa kamida 100 metr uzoqlikda joylashishi kerak. Ammo Qashqadaryo viloyatining ayrim obyektlarida mazkur talab bajarilmayapdi. [2]

Viloyatning Yakkabog‘ tumanida joylashgan X-XII asrlarga oid “Chordang‘itepa” arxeologiya yodgorligining bir qismi buzib tashlanib, o‘rniga uy-joy qurilgan. Bizga ma’lumki, O‘zbekiston Respublikasi Davlat Arxitektura va Qurilish Qo‘mitasi buyrug‘i bilan tasdiqlangan talabga asosan transport va muhandislik kommunikatsiyalari madaniy meros obyektlaridan kamida 100 m uzoqlikda joylashishi kerak. Ushbu talabga asosan, Yakkabog‘ tuman “Uchtepa” MFY Nug‘ayli qishlog‘i hududida joylashgan “Chordang‘itepa” arxeologiya yodgorligiga ajratilgan yer maydonidan 100 metrgacha muhofaza zonasi belgilangan bo‘lishiga qaramasdan fuqarolar tomonidan ushbu hududda qurilish qilingan yoki o‘zboshimchalik bilan

egallab olingan va qishloq xo‘jaligi hamda dehqonchilik ishlari amalga oshirilgan.(1-rasm) Jumladan, Yakkabog‘ tuman Uchtepa mahalla fuqarolar yig‘ini hududida yashovchi Muhamediyev Farhod Baxtiyorovich tomonidan 1200 kv.m maydon o‘zboshimchalik bilan o‘zlashtirilgan va ushbu hududga uy-joy qurib olingani ma’lum bo‘ldi. Fuqaroga yer maydoni uchun “Yermulkkadastr” DK Yakkabog‘ tuman filiali tomonidan soliqqa tortish maqsadida foydalanuvchi sifatida hujjat qilib berilgan, ammo yer maydoniga doimiy egalik qilish bo‘yicha Yakkabog‘ tuman hokimining qarori mavjud emas. Tadqiqotlar natijasida ma’lum bo‘ldiki, fuqaro tomonidan “Chordang‘itepa” arxeologiya obyektiga taqab uy-joy binosini qurish jarayonida arxeologiya obyektining eni 1,5 metr, bo‘yi 8 metr, balandligi 1,5 metr bo‘lgan tuproq surilib uy-joy binosi qurilganligi va madaniy meros obyektiga zarar yetkazilganligi aniqlandi.(2-rasm)Bu ish bo‘yicha Yakkabog‘ tuman prokuraturasi tomonidan jinoyat ishlari qo‘zg‘atilib, tergov harakatlari olib borilmoqda.



1-rasm. “Chordang‘itepa” yodgorligining sun‘iy yo‘ldosh orqali olingan surati



2-rasm. O‘zboshimchalik bilan o‘zlashtirilgan maydonning fotosuratlarini

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Yangilanayotgan O‘zbekiston taraqqiyotida iqtisodiy fanlarni o‘qitishning dolzarb masalalari respublika ilmiy-amaliy konfrensiyasi. “Madaniy meros obyektlari: iqtisodiy muammolar va yechimlar”. Husanova Madina. 16-iyun,2023-yil
2. Mirzayev J.O., Xujakeldiyev K.N., Nosirov J.K. Kadastr kartalarini elektron shaklda yaratishning yangi bosqichlari. Research And Education. 2023/11/30 202-205 betlar.
3. Mirzayev J.O., Xujakeldiyev K.N., Nosirov J.K. Kadastr ishlari uchun geodezik o‘lchovlarni matematik qayta ishlash amaliyotini takomillashtirish. Research And Education. 2023/2/28 179-182 betlar.
4. Mirzayev J.O., Mirzayev J.B., Asadov X.J. Yer uchastkalari maydonlarining aniqligini baholash natijalarini taqqoslash tahlili. Research And Education. 2022/4/30 406-409 betlar.
5. Mirzayev J.O., G‘ofirov M.J. Qurbonmurodov A.A. Yer tuzish va kadastr ishlari uchun geodezik o‘lchovlarni matematik qayta ishlash nazariyasi va amaliyotini takomillashtirish. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. 2022/1/31 1178-1181 betlar.
6. Mirzayev J.O. Geodezik o‘lchash ishlarida GPS tizimini qo‘llash samaradorligi. Research And Education. 2024/4/30 113-115 betlar.
7. O‘zbekiston Respublikasi Madaniy meros agentligi ma’lumotlari
8. Google.uz.